

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.01.2020.I.20.06
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

OTAJONOV QAHRAMON OTAJONOVICH

**AUTSORSING XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA DAVLAT
XARIDLARINI SIFATLI TA'MINLASH YO'LLARI**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of doctor of philosophy (PhD) in
economic sciences**

Otajonov Qahramon Otajonovich

Autsorsing xizmatlarini rivojlantirish asosida davlat xaridlarini sifatli ta'minlash yo'llari.....3

Отажонов Кахрамон Отажонович

Пути обеспечения качества государственных закупок на основе развития аутсорсинговых услуг.....29

Otajonov Qakhramon Otajonovich

Ways to ensure the quality of public procurement based on the development of outsourcing services.....57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works61

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.01.2020.I.20.06
RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

OTAJONOV QAHRAMON OTAJONOVICH

**AUTSORSING XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA DAVLAT
XARIDLARINI SIFATLI TA'MINLASH YO'LLARI**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2023

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2 .PhD/Iqt2908 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Salayev San'atbek Komilovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ubaydullayev Kayrulla
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qahhorov Otabek Siddiqovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.01.2020.I.20.06 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 12-sentyabr soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, I. Tel.: (99861) 223-60-78, faks: (99861) 223-60-19, e-mail: karsu_info@edu.uz.)

Dissertatsiya bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (152 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, I. Tel.: (99861) 223-59-49, e-mail: karsu_info@edu.uz.)


Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 24-avgust kuni tarqatildi.

(2023-yil 24-avgust dagi 37 raqamli reestr bayonnomasi).




J.K.Sauxanov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor


R.B.Utemuratov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)


T.Doschanov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya tadqiqoti mavzusining dolzarbligi va zarurligi. Jahon mamlakatlari iqtisodiyotida bozor mexanizmining samarali amal qilishini ta'minlash milliy va xalqaro darajadagi raqobatbardoshlikni oshirishning muhim talablaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Iqtisodiyotga davlat aralashuvini minimallashtirishning asosiy yo'llaridan biri outsorsing xizmatlarini rivojlantirish asosida davlat xaridlarini ta'minlash hisoblanadi. "Jahon iqtisodiyotida kechayotgan globallashtirish, axborotlashuv tendensiyalari sharoitida davlat va nodavlat sektorining 50-60 foiz uzoq muddatli shartnomalari tashqi resurslarini jalb etishni nazarda tutuvchi outsorsing xizmatlari orqali amalga oshiriladi. 2021-yilda IT sohasida dunyo outsorsing xizmatlari bozori hajmi 414 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda esa qariyb 1 trln. AQSH dollariga yetdi. Jumladan, XXR outsorsing xizmatlari bozori 362 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilgani holda, 2021-yilga nisbatan 14,2 foizga oshdi"¹. Hozirda davlat sektori vazifa va majburiyatlarini outsorsing xizmatlari asosida tashkil etishning nisbatan qulay va samarali mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda milliy va xalqaro miqyosdagi samarali va raqobatbardosh iqtisodiy mexanizmlarni yo'lga qo'yishda ijtimoiy xizmatlarni outsorsing asosida rivojlantirish yo'llari va istiqbollari yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Outsorsingni tashkil etishning zamonaviy shakllari, dunyo outsorsing xizmatlari bozori va uning geografiasidagi asosiy tendensiyalar, davlat xaridlarining ahamiyati, tarkibi va o'ziga xos xususiyatlari, davlat xaridlarini ta'minlashning sifat jihatidan mezonlari, outsorsing xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari, outsorsingni tashkil etishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish kabilar bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda taraqqiyotning hozirgi bosqichida davlat xizmatlarini xususiy sektorga o'tkazish orqali ularning sifati va samaradorligini oshirish, aholining ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham "...davlat byudjeti xarajatlari samaradorligini yanada oshirish, davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish, DXSH asosida energetika, transport, suv xo'jaligi, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmat, sog'liqni saqlash kabi sohalarga skoring, faktoring, outsorsing xizmatlarini keng joriy etish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish"² ustuvor vazifalar etib belgilangan. Shuningdek, O'zbekistonda outsorsing xizmatlarini rivojlanishi maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom ovqatlanishni tashkil etish³, sog'liqni saqlash tizimida bemorlarni ovqatlantirish, kir yuvish, tibbiy buyumlarni zararsizlantirish, tibbiy tashxislar, global raqamli ekotizim, biznes-jarayonlari outsorsingi (BPO) sohasini jadal rivojlantirish o'ta dolzarb va muhim vazifalardan deb qaralmoqda. Ushbu yo'nalishdagi vazifalarni amalga oshirish outsorsing xizmatlarini rivojlantirish asosida davlat xaridlarini sifatli ta'minlash yo'llarini o'rganishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining dolzarbligini belgilab beradi.

¹ Манба: Бельская Я.И. Развитие аутсорсинга в мировой экономике <https://core.ac.uk/download/pdf/>

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони// <https://lex.uz/docs/5841063>

³ <https://bugun.uz/2022/09/22/ozbekiston-bogchalarining-outsorsing-usuliga-otishda-jiddiy-kamchiliklar-aniqlandi>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Tapaqqiyot strategiyaci to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 3-iyuldagi PQ-5171-son “Davlat xaridlari shaffofligini ta‘minlash va samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 5-dekabrdagi PQ-4544-son “Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va davlat xaridlari jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 1-yanvardagi 734-son “Davlat xaridlari elektron tizimi operatorlari faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 20-maydagi 276-son “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”, 2021-yil 30-iyuldagi 473-son “Davlat buyurtmachilari tomonidan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) davlat xaridlarida uzluksizlikni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 27-yanvardagi 37-son “Davlat xaridlarini amalga oshirishda xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yanada takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi qarorlari va sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi myayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlani-shining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-ahloqiy va madaniy rivojlanti-rish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Outsorsing xizmatlarini rivojlantirish va outsorsingga asoslangan boshqaruv tizimlarini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifatini oshirishning umumiy va ayrim masalalari xorijlik, MDX olimlaridan N.V.Afanasyev, Yu.A.Alekseeva, I.S.Voinov, O.G.Kantor, S.A.Kirillov, Yu.A.Kuznesov, R.Morgan, O.B.Frans, A.D.Kravsov, M.V.Selin, D.M.Shor, J.B.Xeyvud va boshqa mualliflarning ishlarida o‘rganilgan⁴.

O‘zbekistonda tadbirkorlik, xizmatlar sohalarini modellashtirish, jumladan, aut-sorsing xizmatlarini rivojlantirish, davlat xaridlari va xarajatlarini muvofiqlashtirish-ning ayrim nazariy-amaliy hamda uslubiy jihatlari respublikamiz iqtisodchi olimlari-

⁴Афанасьева Н.В. Государственный заказ как инструмент макроэкономического регулирования экономики :Монография.-СПб.:Изд-во СЗТУ,2009.-160 с;АбдрахимовД .Эффективность системы государственных закупок //Конкурсны еторги, 1995.-№3.-С.32-37; Алексеев Ю.А.Исследование эффективности и качества оказания государственных муниципальных услуг (функций) в электронном виде: Автореф. дисс. канд.техн.наук.- Астрахань:АТУ, 2011.- 19с. Войнов И.С .Развитие системы качества социальных услуг: Автореф. дисс. канд. экон. наук.-М.:ОАО«ИТКОР», 2011. -26с. Кириллова С.А.,Кантор О.Г.,Кузнецова Ю.А.О комплексной оценке уровня качества бюджетных услуг// Проблемы прогнозирования, 2009.-№3.-С.101-111; Кравцов А.Д. Электронный аукцион как фактор повышения эффективности системы государственных закупок//Тerra Economicus, 2010.-Т.8. -№3-3. -С.75-83. Морган Р.Эффективный аутсорсинг. Понимание, планирование и использование успешных аутсорсинговых отношений. — М.:Баланс Бизнес Букс,2007.-475с. Франц О.Б. Аналитическая записка «О стандартах предоставления государственных услуг как инструменте управления качеством жизни населения».[Электронный ресурс]/О.Б.Франц/ ЦЭПМ «Консультант».URL: <http://consul.ural.ru/243/248/lesson/421.htm>; Селина М.В.Тенденции развития и эффективность использования аутсорсинга на мировых рынках деловых услуг: Автореф.дисс.канд.экон. наук.-М.:РЭУим.Г.В.Плеханова,2011.-28с.; ШорД.М. Повышение результативности расходов бюджетов методом аутсорсинга бюджетных услуг: Автореф. дисс.канд.экон.наук.-Волгоград: ВГУ,2010.-28с ХейвудДж.Б.

dan S.S.G‘ulomov, M.Q.Pardayev, A.Vahobov, N.Jumayev, N.Xaydarov, B.To‘rayev, T.Doschanov, S.K.Salayev, N.Murodova, U.G‘afurov, D.Zaynalov, G.Qosimova, M.Olloyorov, D.Xolmuradov kabilarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan⁵.

Biroq, samarali davlat xaridlarini amalga oshirish, ovqatlanish va kommunal xizmatlar ko‘rsatish sifatini oshirishda tanlov asosida jalb qilingan tashkilotlar, byudjet muassasalari, tijorat va notijorat tashkilotlari o‘rtasida sog‘lom raqobatni tashkil qilish, tashqi yetkazib beruvchilarni jalb qilish orqali cheklangan byudjet mablag‘larini tejash imkonini beruvchi outsorsing xizmatlaridan foydalanishning nazariy, uslubiy jihatlari-tadqiq etishning yetarlicha o‘rganilmaganligi, outsorsing xizmatlarini davlat xaridlari tizimida keng joriy qilish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiya hamda takliflar ishlab chiqish zarurati dissertatsiya mavzusini tanlashda asos bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqotning maqsadi outsorsing xizmatlari asosida davlat xaridlarining sifatini oshirish bo‘yicha ilmiy amaliy tavsiya hamda takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

zamonaviy iqtisodiyotda davlat xaridlarining o‘rnini asoslagan holda outsorsing xizmatlarini qo‘llab, davlat xaridlarini bajarish sifatini oshirishning asosiy yo‘nalishlari va muammolarini aniqlash;

O‘zbekistonda outsorsing xizmatlari asosida davlat xaridlarini tashkil qilishning davlat va mahalliy boshqaruv tizimida byudjet xaridlarining sifatiga ta’sirini o‘rganish; outsorsing xizmatlaridan foydalanish asosida davlat xaridlari sifatini ta’minlashning ilg‘or xorijiy tajribalarini qiyosiy o‘rganish;

O‘zbekiston Respublikasida outsorsing xizmatlar asosida davlat xaridlari sifatini oshirish ko‘rsatkichlarini baholash;

outsorsing xizmatlari asosida davlat xaridlarining sifatini baholashning zamonaviy vositalari va usullarini asoslash va sifatini oshirish uslubiyatini takomillashtirish;

outsorsing xizmatlari asosida davlat va mahalliy boshqaruv organlari buyurtmalarining sifatini oshirish, bajarish xavfini kamaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

Xorazm viloyatida byudjet xaridlarini tashkil etishning istiqbolli yo‘nalishlari va prognoz qiymatlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida davlat xaridlarini amalga oshirishda outsorsing texnologiyasidan foydalangan holda davlat xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar olingan.

Tadqiqotning predmetini davlat va mahalliy boshqaruv organlari xaridlari tizimida outsorsing xizmatlari orqali sifatni ta’minlash jarayonida vujudga keluvchi

⁵ Вахобов А. ва бошқ. Давлат молиясини бошқариш. Ўқув қўлланма. -Т.: Иқтисод ва молия. 2008, 260 б; Маликов Т., Хайдаров Н. Давлат бюджети. Ўқув қўлланма. -Т.: «Иқтисод ва молия», 2007,84 б.; Маликов Т., Хайдаров Н. «Бюджет даромадлари ва харажатлари» Ўқув қўлланма, -Т.: «Иқтисод ва молия», 2007, 245 б.; Бурханов У. Государственные закупки.-Т.: «UzInfoCom», 2010 г. 156 стр. М.Қ.Пардаев ва Ҳ.Н.Мусаевлар умумий тахрири остида. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари. Монография. – Т.: Iqtisod-moliya, 2008. – 259 б.; Д.Р.Зайналов. Услуги и сервис как экономическая категория // Сервис. - Самарканд, 2009. - №1.; Тураев Б.Х.Организационно-экономические механизмы регионального туризма.-Т.:Фан, 2009., Алимова М.Т. Худудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари. Монография. Иқтисодиёт, - Тошкент, 2015. – 300 б.; Досчанов Т., Салаев С. Иқтисодиёт ва тадбиркорлик асослари. Ўқув қўлланма. -Тошкент, Иқтисодиёт ва молия, 2006; Досчанов Т., Досчанов А., Атаев Ж. Инновация шароитида тадбиркорлик тизими барқарорлиги ва хавфсизлигини таъминлаш: муаммолар, усуллар, моделлар. Монография, -Тошкент, 2020, 170 б.

iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, sotsiologik so'rovnomalar, SWOT tahlil, ko'p o'lchamli qiyosiy statistik tahlil, regression-korrelyatsion tahlil, ekonometrik modellashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida "outsourcing xizmatlari" tushunchasining mazmuni davlat xaridlari tizimiga joriy qilish, xaridlarini bajarish sifatini oshirish shartlari va omillari, davlat bozorida ochiq raqobatni kuchaytirish va uning monopollashuv tendensiyalarini kamaytirish jihatidan takomillashtirilgan;

davlat xaridlari tizimida outsourcing asosida taqdim etilgan ijtimoiy xizmatlarning bajarilish sifatini shartnoma amal qilish muddati boshlangan davrdan xizmatlarning dastlabki to'liq texnologik sikli yakuniga ko'ra erta aniqlash orqali byudjet mablag'lari tejalinini ta'minlash taklifi asoslangan;

davlat xizmatlari outsourcingni tashkil qilishda outsorserni tanlashda chegaraviy xarajatlar asosida iqtisodiy samaradorlikni miqdoriy baholash, zaruriy talablar doirasida eng maqbul to'lov evaziga daromad olish imkoniyatiga ega bo'lgan outsorserlarni tanlashga ko'ra iqtisodiy-sifat jihatdan yondashuv asoslangan;

O'zbekistonda outsourcing xizmatlari asosida davlat xaridlarining sifatini oshirish yo'nalishlari asosida istiqbolda tejaladigan mablag'larning 2027-yilga qadar prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

zamonaviy iqtisodiyotda outsourcing xizmatlarini davlat xaridlari tizimiga joriy qilishning tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari, tendensiyalari hamda outsourcingni joriy qilish orqali davlat xaridlari sifatini oshirish yo'llari asoslangan;

outsourcing xizmatlaridan samarali foydalanish asosida davlat xaridlari tizimida xizmatlar va mahsulotlar sifatini oshirish, boshqaruvning vertikal hamda tadbirkorlik subyektlari bilan davlat o'rtasida gorizontaal kooperatsiya aloqalarini o'rnatish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

outsourcing xizmatlarini maktabgacha ta'lim, sog'liqni saqlash tizimida joriy etishning takomillashgan mexanizmining algoritmi ishlab chiqilgan;

outsourcing xizmatlari orqali davlat xaridlarining sifatini oshirish yo'nalishlari, ekonometrik modellar asosida elektron auksion va elektron do'kon bo'yicha e'lon summasining bir foizga oshishi tejalgan mablag'ni mos ravishda 0,63 va 0,36 foizga oshishini ta'minlashi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar, tahlil usullari va ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika usullari yordamida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflardan davlat xaridlarini amalga oshirish sifati va mexanizmlarini takomillashtirishga oid nazariy-metodologik va uslubiy mexanizmi, mavzuga

bag'ishlangan maxsus ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati milliy va mahalliy darajada iqtisodiyot tarmoqlari hamda sohalarda outsorsing xizmatlarini samarali rivojlantirish bo'yicha dacturiy hujjatlar, kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishda hamda "Xizmat ko'rsatish va servis iqtisodiyoti", "Davlat moliyasini boshqarish", "Innovatsion xizmatlar" kabi fanlarni o'qitishda, sohaga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Outsorsing xizmatlari asosida davlat xaridlarining sifatini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy amaliy tavsiya hamda takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida "outsorsing xizmatlari" tushunchasining mazmuni davlat xaridlari tizimiga joriy qilish, xaridlarini bajarish sifatini oshirish shartlari va omillari, davlat bozorida ochiq raqobatni kuchaytirish va uning monopollashuv tendensiyalarini kamaytirish jihatidan takomillashtirilgan nazariy-uslubiy materiallaridan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan "Raqamli iqtisodiyot" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentabrdagi 302-son buyrug'i). Ushbu takomillashtirilgan nazariy-uslubiy materiallarining darslikga kiritilishi natijasida talabalarda outsorsing xizmatlari va davlat xaridlari tizimi tushunchalarining iqtisodiy mazmunini kengroq tushunish, byudjet mablag'larini tejash bo'yicha statistik tahlilni takomillashtirish, byudjet xarajatlari va daromadlariga oid tezkor, ishonchli, birlamchi ma'lumotlarni olish imkoniyatlari yaratilgan;

davlat xaridlari tizimida outsorsing asosida taqdim etilgan ijtimoiy xizmatlarning bajarilish sifatini shartnoma amal qilish muddati boshlangan davrdan xizmatlarning dastlabki to'liq texnologik sikli yakuniga ko'ra erta aniqlash orqali byudjet mablag'lari tejalishini ta'minlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasining 2023-yil 10-iyundagi 01/1078-son ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy taklifning amaliyotda qo'llanilishi natijasida outsorsing xizmatlarini rivojlantirish asosida byudjet yuklamasini 1,46 marta kamaytirish imkoni yaratilgan;

davlat xizmatlari outsorsingini tashkil qilishda outsorserni tanlashda chegaraviy xarajatlar asosida iqtisodiy samaradorlikni miqdoriy baholash, zaruriy talablar doirasida eng maqbul to'lov evaziga daromad olish imkoniyatiga ega bo'lgan outsorserni tanlashga ko'ra iqtisodiy-sifat jihatdan asoslangan yondashuvdan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasining 2023-yil 10-iyundagi 01/1078-son ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy taklifning amaliyotda qo'llanilishi elektron auksion va do'kon bo'yicha e'lon summasini 1 foizga oshishi iqtisod qilingan byudjet mablag'larini mos ravishda 0,63 va 0,36 foizga oshishini ta'minlash imkonini yaratgan;

O'zbekistonda outsorsing xizmatlari asosida davlat xaridlarining sifatini oshirish yo'nalishlari asosida istiqbolda tejaladigan mablag'larning 2027-yilga qadar ishlab

chiqilgan prognoz qiymatlaridan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi amaliyotida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasining 2023-yil 10-iyundagi 01/1078-son ma‘lumotnomasi). Mazkur prognoz qiymatlarining amaliyotda qo‘llanilishi natijasida e‘lon summasini 37,6 foizga qisqartirish orqali byudjet mablag‘larining tejalishiga erishilishi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarni aniqlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan va ma‘qullangan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi OAK tomonidan doktorlik disseptatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 8 ta maqola (7 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tapkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 123 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekti hamda predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Autorsing xizmatlaridan foydalanish asosida davlat xaridlari samaradorligini ta‘minlashning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida autorsing xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va davlat xaridlarini amalga oshirishdagi obyektiv zaruriyati, O‘zbekistonda autorsing xizmatlari asosida davlat xaridlarini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari va sifatini ta‘minlashning xorijiy tajribalari keltirib o‘tiladi.

Autorsing tushunchasi ilmiy-amaliy muomalaga MDHlik iqtisodchi olim B.A.Anikin⁶ ta‘kidlashicha, ilk bor 1989-yilda kiritilgan bo‘lib, Eastman Kodak kompaniyasi o‘zining axborotni qayta ishlash tizimlarini xarid qilish, ishga tushirish va to‘laqonli faoliyat yuritishini nazorat qilish uchun chetdan boshqa tashkilotlarni yo‘llagan paytida paydo bo‘ldi. Hozirgi vaqtda mazkur tushunchaga yaqin bir qancha talqinlar mavjud bo‘lib, autorsingning jadal rivojlanishi, u qo‘llaniladigan sohalarining ko‘payishi evaziga uni aniq bir umumlashgan talqinini murakkablashtiradi.

Tahlillarimizga ko‘ra, iqtisodiy adabiyotlarda autorsingning quyidagi ta‘riflarini uchratish mumkin:

1. Noaniqlik va beqarorlik sharoitida zamonaviy biznes oldida turgan maqsad va vazifalarga erishish uchun uzoq muddatda ichki va tashqi resurslarni samarali taqsim-

⁶ Аникин, Б.А., Рудая И.Л. Аутсорсинг и аутстаффинг: высокие технологии менеджмента: Учеб.пособие / Б.А. Аникин, И.Л. Рудая. - М.: Инфра - М, 2006. С.5.

ga imkon beruvchi dastakdir⁷.

2. Boshqaruv vazifalarini samaraliroq amalga oshirish va zaruriyat tug‘ilganda tegishli resurslarni samaraliroq boshqarishi mumkin bo‘lgan tashqi, yollanma ijrochilarga berishdir⁸.

3. Kelishilgan bahoda muayyan davr oralig‘ida biron bir xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotga korxonaning ichki bo‘linmasi yoki bo‘linmalarini va u bilan bog‘liq barcha aktivlarni o‘tkazishdir⁹.

4. Uzoq muddatli kelishuv asosida zarur resurslarga ega bo‘lgan tashqi tashkilot tomonidan korxonaning alohida vazifa yoki biznes jarayonlarini bajarishdir¹⁰.

Demak, *outsourcing* asosan muayyan faoliyat turiga ixtisoslashgan tashqi kompaniyani biron bir muayyan tashkilot yoki tashkilotlarning ayrim vazifalarini bajarishga jalb qilishni anglatadi.

Shu bilan birga, keyingi yillarda *outsourcing* atamasining ma’nosiga yaqin ko‘pgina atamalar fanga kirib keldi. Xodimlarni korxonadan shtat jadvalidan chiqarib, ularni *outsorser* firmaga rasmiylashtirib, undan “xodimlarni ijara”ga olish **autstaffing** (*out-staffing*) yoki **xodimlar lizingi** deyiladi (*staffleasing*). Ayrim mualliflar esa *autstaffing* atamasini tashqi tashkilot tomonidan xodimlar jalb qilish deb talqin qilishadi¹¹.

Ma’nosi bo‘yicha ham **outplacement** (*outplacement*) atamasini ishdan bo‘shagan mijoz tashkilot xodimini ixtisoslashgan agentliklar kuchlari bilan ishga joylashtirishdir. Shuningdek, ayrim mualliflar¹² tomonidan **outplacement, outtasking** (*outtasking*)¹³, *insourcing, reinsourcing, eksternalizatsiya, kooperatsiya, shartnomani ijro uchun boshqa tomonga berish, quvvatlarni boshqarish va subpudrat munosabatlari kabi hamkorlik aloqalari farqlanadi* (1-jadvalga qarang).

Fikrimizcha, *outsourcing*ning farqli jihatlarini tahlil qilish va o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlarimiz ushbu tushunchani yanada to‘laroq ifodalovchi quyidagi tarifni shakllatirish imkonini berdi *Outsourcing – kompaniyaning alohida olingan vazifalarini strategik ustunlikka erishish uchun ixtisoslashgan ijrochi tashkilotlarga berishdir*.

Shu sababli biz taklif etgan *outsourcing* tushunchasida *outsourcing*ga beriluvchi vazifalar deganda “noixtisos” yoki “ikkkinchi darajali” belgilar mavjud emas. Yaqin vaqtlargacha *outsourcing* konsepsiyasi “asosiy rivojlantir” va “ikkinchi darajalini ber” tamoyiliga asoslangan edi.

Keyinchalik ayrim tashkilotlar kompaniyaning asosiy vazifalarini ham *outsorser*ga uzatishgacha kengaytirishdi. Shuningdek, amaliyotda “*virtual tashkilotlar*” yoki “*brand egalari*” ni tashkil qilish keng tus oldi.

⁷ Бенчмаркинг / Е.А. Михайлов. — М.: ООО «Благовест- В», 2003. С.13.

⁸ Календжян, С.О. Аутсорсинг и делегирование полномочий в деятельности компаний / С.О. Календжян. -М.: Дело, 2003. С.16.

⁹ Хейвуд, Дж. Брайан Аутсорсинг: в поисках конкурентных преимуществ / пер. с англ. Н.Е. Метоль, И.С. Половицы. - М.: Издательский дом «Вильямс», 2004. С.40.

¹⁰ Аникин, Б.А., Рудая И.Л. Аутсорсинг и аутстаффинг: высокие технологии менеджмента: Учеб.пособие / Б.А. Аникин, И.Л. Рудая. - М.: Инфра - М, 2006. С.12.

¹¹ Ўша жойда: С.85.

¹² Михайлов, Д. М. Аутсорсинг. Новая система организации бизнеса: учебное пособие / Д.М. Михайлов. - М.: КНОРУС, 2006. - 256 с. Михайлова, Е.А. Бенчмаркинг / . — М.: ООО «Благовест- В», 2003.С.15

¹³ Аникин, Б.А., Рудая И.Л. Аутсорсинг и аутстаффинг: высокие технологии менеджмента: Учеб.пособие / Б.А. Аникин, И.Л. Рудая. - М.: Инфра - М, 2006. С.15.

“Brend egalari” faoliyatini J.Br.Xeyvud quyidagicha tavsiflaydi: virtual tashkilotning barcha vazifalarini bajarish uchun boshqa firmalarga beriladi, faqat korxonaning “qalbi, yuragi”ga tegilmaydi. Shuningdek, u bunday kompaniyalarning ustunliklari yoki kamchiliklari, ularning faoliyati kelgusida nima bo‘lishi xususida so‘z yuritish qiyin deb ta’kidlaydi¹⁴.

Kelgusida ushbu tarzda ishlovchi firmalar soni yanada oshadi. “Red Bull”, “Smart Sag”, “Swatch“ kabi kompaniyalar uzoq muddatdan beri mazkur modelni qo‘llashadi.

1-jadval

Firmalararo munosabatlar turlari va ularning outsorsingdan farqli jihatlari¹⁵

Firmalararo munosabatlarning turlari	Ta’rifi	Outsorsingdan farqli jihati
Eksternalizatsiya	Eksternalizatsiya bu outsorsingga yaqin bo‘lib, kompaniyaning u yoki bu vazifasini bajarishni nazorat qilishni shu sohani ixtisoslashgan firmaga berishni anglatadi.	Eksternalizatsiya outsorsingga ko‘ra, umumiy tushuncha, ish bajarilishini nazorat etish darajasi outsorsing kelishuvida ko‘rsatiladi.
Shartnomani bajarishni boshqa tashqi lotga berish (contracting-out)	Shartnomaviy ishlab chiqarish savdo markasi egasini mahsulot ishlab chiqarishga buyurtmasini boshqa tashqi tashkilotga berishni nazarda tutadi.	Mazkur atama outsorsing texnologiyasini ishlab chiqarishda qo‘llashda foydalanilishi mumkin.
Kooperatsiya	Ikki va undan ortiq o‘zaro naf keltiruvchi tizimlarning o‘zaro harakati	Outsorsingni amalga oshirishda biznes jarayonni bajarishdan voz kechishi va uni boshqa tomonga bajarish uchun topshirishi yuz beradi.
Quvvatlarni boshqarish	Xodimlar, mulk va texnologiyalarni boshqarish mas’uliyatini boshqa tashkilotga berish.	Outsorsing loyihalarini amalga oshirish vazifalarni buyurtmachiga outsorser samarali bajarishini nazarda tutadi.
Autstaffing	Boshqa tashkilotdan xodimlar jalb qilish yoki xodimlar lizingi.	Xodimlar ta’minoti sohasidagi outsorsingga tegishli nisbatan tor tushuncha.
Autspleysment	Xodimlarning kompaniya tashqarisiga chiqishi.	Mijoz tashkilot xodimini ixtisoslashgan agentlar yordamida ishga joylashtirish.
Autstakking	Korxonaning alohida olingan bir vazifalarinigina boshqa ijrochiga o‘tkazishdir. Bunda baribir xizmatlar buyurtmachisi tomonidan qattiq nazorat saqlanib qoladi.	Outsorsingni amalga oshirishning bir ko‘rinishi bo‘lib, o‘zaro munosabatlar xarakterini ifodalaydi.
Insorsing	Oldin outsorser tomonidan bajarilgan vazifalarning buyurtmachi-kompaniyaga qaytarilishi.	Kompaniya vazifalarini bajarishda vakolatlarni taqsimlash harakatini ifodalaydi.
Reinsorsing	O‘z vazifalarini amalga oshirish uchun kompaniyaning o‘z bo‘linmalarini yaratishi va rivojlantirishi.	Outsorsingga teskari konsepsiya.

Nike kompaniyasi bironta fabrikasiga ega bo‘lmagan, o‘z biznesini tez yugurish,

¹⁴ Хейвуд, Дж. Брайан Аутсорсинг: в поисках конкурентных преимуществ / пер. с англ. Н.Е. Метоль, И.С. Половицы. - М.: Издательский дом «Вильяме», 2004. — 176 с.

¹⁵ Muallif ishlanmasi.

yurish bo'yicha yapon tuflilarini import qilishdan boshlab, tovar brendning namunasiga aylandi. Bundan hayratlangan Nike "do'stlari" va ko'pgina an'anaviy, vertikal-integratsiyalashgan kompaniyalar aynan Nike modelidan nusxa olishadi¹⁶.

Shuningdek, jahonda yuzaga kelayotgan keskin raqobatchilik, COVID-19 pandemiyasining uzoq davom etganligi, Rossiya bilan Ukraina o'rtasidagi urush, harbiy mojarolar, 2022-yilda Jahon YIMning 101,6 trln. AQSH dollarini tashkil etgani holda dunyo qarzining 296 trln. AQSH dollarga yetib, jahon YIMdan qariyb 3 marta oshganligi, global davlat qarzining 65,4 trln. AQSH dollariga yetgani¹⁷ va globallashtirish jarayonlari yangicha ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, har bir davlat mablag'lari hisobidan xarajatlarni optimallashtirish kabi dolzarb vazifalarni qo'ymoqda.

O'zbekiston Respublikasida 2021-yil yakuniga ko'ra¹⁸, YIMda davlat xarajatlarining ulushi 31,8 foizni tashkil etdi va uni iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Chunki davlat xaridi milliy YIMni shakllanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda davlat xaridini amalga oshirish sohasida olib borilgan oqilona siyosat makroiqtisodiy parametrlarga jiddiy ta'sir etuvchi vosita sifatida maydonga chiqadi:

- davlat xaridini iqtisodiyotning ma'lum sohalarida amalga oshirish orqali o'sha sohalar rivojiga va aholi bandligi hamda daromadlari darajasiga ijobiy ta'sir etadi;
- ochiq tenderlarni e'lon qilish orqali erkin raqobatni rivojlantirishga ta'sir etadi;
- sotib olinayotgan tovarlarning sifat talabini xalqaro andoza talablarga tenglashtirish orqali, milliy ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulot sifatini oshirishga erishish mumkin;
- kichik biznes vakillar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarni sotib olishda tanlov jarayonlarini joriy etish orqali kichik biznesni va erkin raqobatni rivojlantirishga erishish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida istiqloq yillarida hukumat davlat xaridlarining turli vositalaridan foydalanib keldi. Ayniqsa, keyingi 6 yilda 4 ta ijtimoiy daftarlarning joriy qilinishi, "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Ko'p qavatli uylar qurish dasturlari", "Xavfsiz shahar", OTMlarning DXSH asosida talabalar turar joylarini qurish dasturlari, sog'liqni saqlashda DXSH asosida ovqatlantirish, tashxis qo'yish, kirlarni yuvish, gemodializ xizmatlarini tashkil qilish, harbiy qismlarda ovqatlantirish, tozalashni outsorsingga o'tkazish amalga oshirildi.

Xalqaro biznes jarayonlari outsorsingi bozori yo'nalishlari, yakuniy iste'molchilari, joylashgan o'rni va geografiyasi bo'yicha farqlanadi. Yakuniy iste'molchisi bo'yicha bu bozorni BFSI, ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash, chakana savdo, telekommunikatsiya va boshqa foydalanuvchilarga ajraladi. BPO bozori esa inson resurslari, xaridlar, uskunalar va ma'murlash, mijozlarga xizmat ko'rsatish, logistika, sotuv va marketing, o'quv, mahsulotlar ishlab chiqish va hokazo. Joylashgan o'rniga qarab esa outsorsing bozorini mahalliy, tashqi va offshor kabi turlarga ajraladi. Geografiyasi bo'yicha esa Shimoliy Amerika, Yevropa, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi,

¹⁶ Бизнес-модель XXI века - обол очечная компания, которая занимается лишь маркетингом и брендингом // Бизнес-технологии. — 2005. - № 7. — С. 30-34

¹⁷ <https://www.tadviser.ru/index.phpmirovaya> ekonomika.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistik agentligi ma'lumotlari// stat.uz.

Janubiy Amerika va Yaqin Sharq¹⁹. Global IT outsorsingi bozori 2021-yil yakunlariga ko‘ra, \$360 mlrd. AQSH dollariga yetgani holda 2020-yilga nisbatan qariyb 13 foizga oshganligini 2022-yilda statist analitiklari e‘lon qildi va bu ko‘rsatkich 2025-yilga borib, 0,5 trln. AQSH dollaridan oshishi prognoz qilinmoqda.

IT kompaniyalarni gullatayotgan globallashuv jarayonida birdaniga depsinish bo‘lib oldi. Hind xodimlarini boy bozorlarda outsorsing uchun katta hajm topish uchun yo‘llanishi AQSH va boshqa mamlakatlarga salbiy siyosiy ta‘sir qildi. AQSH va Xitoy o‘rtasidagi savdo urushlari tufayli yuzaga kelgan manfaatlar kesishuvi hamda Buyuk Britaniyaning YIdan chiqishi, Nomura agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra, mijozlarni oldinlari outsorsingga yo‘naltirilgan mablag‘larni ushlab turishi dunyoning yetakchi outsorsing kompaniyalari daromadlarining 2019-yilda 8,5 foizdan, 2020-yilda 7 foizdan ham pasayishiga olib keldi²⁰.

2019-yildan beri Boltiqbo‘yi mamlakatlarida **aylanma xaridlar** (Sircular PP) deb nomlanuvchi katta loyiha amalga oshirilib kelinmoqda. Shvetsiyalik tadbirkorlar Malmyo shahrining Västra Hamnen Erik va Ellinor Lindblom ko‘p yillar restoran biznesida ishlab, aniq maqsad bilan – ovqat qoldiqlarini qutqarib qolish g‘oyasi ostida “Spill” (*shvedcha “qoldiq” ma’nosini bildiradi*) restoranini ochdilar va unda sof mahsulotlarning ortiqcha qoldiqlaridan mazali taomlarni tayyorlay boshlashdi²¹. Xuddi shunday aksiyalar suv resurslarini, “barqaror rivojlanish ta‘mi” mavzusida mintaqaviy restoran, umumovqatlanish tashkilotlari, kompyuter texnikasining hayotiy siklini ekologik jihatdan cho‘zish bo‘yicha davlat xaridlari masalalari Boltiqbo‘yi davlatlarida keng tadqiq qilinyapti²².

Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarining outsorsing xizmatlari sohasida ilg‘or innovatsion tajribalarini bizning respublikada qo‘llash yaxshi samara beradi. O‘zbekistonda esa xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlari sifatida elektron do‘kon, boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion, eng yaxshi takliflarni tanlash, tender, to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha davlat xaridlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan ruxsat etilgan.

Xulosa qilib aytganda, har bir davlat o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi holati, xususiyatlari va ilg‘or xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda o‘zining yuqoridagi davlat xaridlari, outsorsing modellaridan bir yoki bir nechtasini tanlashi hamda amaliyotda qo‘llashi bilan outsorsing xizmatlarining samaradorligini oshirishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridlarini tashkil etishda outsorsing xizmatlaridan foydalanishga ta‘sir qiluvchi omillar va sifatini baholash”** deb ataluvchi **ikkinchi bobida** mamlakatimizda davlat byudjetining tarkibi va dinamikasining statistik tahlili, davlat xaridlari tizimida outsorsing xizmatlari sifatini baholash vositalari hamda xaridlar sifatini oshirishda byudjet xarajatlarining xizmatlarini outsorsingga o‘tkazishni asoslash metodologiyasi tadqiq qilingan.

Ma‘lumki, bozor tebranishlari va beqarorligi sharoitida turli iqtisodiy qiyinchiliklarning yuzaga kelishi natijasidagi bu iqtisodiy salbiy ta‘sirini

¹⁹ <https://www.mordorintelligence.com/ru/industry-reports/business-processing-outsourcing-market>.

²⁰ <https://www.nomura.com/>.

²¹ <http://card.spb.hse.ru/mirror/pubs/share/341045915.pdf>.

²² <http://circularpp.eu/>.

kamaytirish, aholining ijtimoiy himoyasini tashkil qilish, daromadlar tabaqalanishini mutanosib nisbatlarda saqlab turish, iqtisodiy rivojlanish va o‘shishni rag‘batlantirish, davlatning iqtisodiyotga ta‘sirini ta‘minlash hamda tartibga solishda byudjet-soliq siyosati muhim vosita hisoblanadi. Biroq bu yerda ikkita muammo vujudga keladi, ya‘ni bir tomondan davlat xarajatlarini oshirish talab qilinsa, boshqa tomonda iqtisodiyotni rivojlanishi uchun soliq yukini kamaytirish talab qilinadi.

Natijada, ushbu muammoni bartaraf qilish davlatlar oldidagi muhim masalalardan biri sifatida qolib kelmoqda, chunki bir tomondan byudjet daromadlarini doimiy ravishda oshirib borish imkoniyatining cheklanganligi, boshqa tomondan davlat xarajatlarini muqobil oshirish muammosini yechishda xususiy sektorning rolini oshirish, DXSH munosabatlarini yaxshilashni talab qiladi. Bunday sharoitda outsorsing xizmatlaridan foydalanish, davlat tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarning ma‘lum qismini DXSH asosida xususiy sektor “qo‘liga topshirish” mavjud masalani muqobil hal qilishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Mamlakatda byudjet daromadlari beshta tarkibiy qismdan iborat bo‘lib, faqat ularning to‘rttasini asosiy unsur sifatida qarash mumkin. Chunki yuqori daromaddan olinadigan soliq turi 2017-yilda qo‘shilgan bo‘lib, uning ulushi 2,8 foizni tashkil qilgan, faqat keyingi yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgani holda 2019-yilda 0,1 foizga qadar kamaygan. Natijada 2020-yildan boshlab, ushbu soliq turi bekor bo‘lgan. Byudjet daromadlarining asosiy qismi bevosita hamda bilvosita soliqlar ulushiga to‘g‘ri kelmoqda. 2012-yilda ushbu turumdagi soliqlarning ulushi mos ravishda 25,4 va 49,0 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib bevosita soliqlar ulushi 31,9 foizga oshgan, bilvosita soliqlar ulushi esa 34,9 foizga qadar kamaygan.


Tabiiyki, bu kabi sharoitlarda byudjet taqchilligini kamaytirish, soliq yukini yangillashtirish, davlat tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish uchun DXSH asosida xususiy sektor ulushini kengaytirish masalasiga alohida e‘tibor qaratish talab etiladi. Bunda rivojlangan davlatlar amaliyotida keng qo‘llanilib kelinayotgan hamda samarali usullardan biri bo‘lgan outsorsingdan foydalanish va beso‘naqay, samarasi kam boshqaruv organlarining shtatlarini qisqartirish eng maqbul yo‘llardan biri sifatida qaraladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-sonli Farmoniga ko‘ra, vazirlik va idoralar tizimida jami 17 447 ta shtat birliklari qisqartirildi. Shuningdek, byudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan qo‘shimcha boshqaruv shtat birliklarini turli asossiz sabablarga ko‘ra kiritish qat‘iyan taqiqlanishi kabi keskin chora-tadbirlar keltirib o‘tildi. Bundan tashqari, tegishli sohalarida DXSH va outsorsing mexanizmlarini keng joriy qilish, 2023-yildan boshlab, vazirlik va idoralar hamda ularning tizim tashkilotlarining ayrim funksiyalarini bosqichma-bosqich, jamoatchilik va xususiy sektorga o‘tkazish masalasi ham belgilab olindi.

Davlat byudjetini samarali taqsimlash, davlat xaridlarini amalga oshirish tizimini takomillashtirish, byudjet siyosatini to‘g‘ri shakllantirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining vazifalarini aniq belgilash hamda ortiqcha funksiyalarini kamaytirish, ma‘muriy to‘siqlarni bartaraf etish va tartibga solish, byudjet xarajatlari samaradorligini oshirishning samarali vositasi sifatida outsorsing xizmatlarini rivojlantirish boshqaruv tizimida istiqbolli yo‘nalishlardan bo‘lib qolmoqda. Shuningdek,

iqtisodiy amaliyotda davlat xizmatlarida outsorsingni keng joriy qilish va o'z o'rnida biznes va davlat faoliyatini o'zaro hamkorlikda tartibga solishning ishonchli variantlaridan biri sifatida qaraladi²³.

Amaliy tadqiqotlarda ko'pincha SERVQUAL xizmat sifatini baholash metodologiyasi keng qo'llanilib kelinmoqda²⁴. Ushbu metodologiya 22 juft savoldan tashkil topadi va beshta asosiy parametr bo'yicha guruhlangan so'rovnomani o'z ichiga oladi. Mazkur guruhlar: ishonchlilik, kafolat, chidamlilik, empatiya, talablarga javob berish tamoyillariga asosan shakllantirilgan. Ko'pincha xizmat sifatini baholashning boshqa usullarini ishlab chiqish uchun asos sifatida foydalaniladi, jumladan, SERVPERF bu kabi usullardan biri hisoblanadi²⁵. Unga qo'shimcha ravishda, mijozning qoniqish indeksini (Customer Satisfaction Index — CSI) hisoblash usuli ham keng foydalaniladi va bu indeks iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha iste'molchilar o'rtasida so'rovlar o'tkazish orqali shaxsiy suhbatlar usuli asosida yig'ilgan respondentlar ma'lumotlariga tayangan holda mijozlarning qoniqish sabablari va omillari, shuningdek, ularning ishonchliligini aniqlash imkonini beradi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtda davlat xizmatlarini outsorsingga o'tkazishni asoslashning uslubiy masalalarini aks ettiruvchi, byudjet xizmatlaridan foydalanish sifatini oshirishni kompleks baholashning yagona ishonchli metodologiyasi hali ishlab chiqilmagan. Shu sababli biz ishonchli, davlat va mahalliy xaridlar tizimi orqali outsorsing qilinishi mumkin bo'lgan turli soha, tarmoq va xo'jalik bo'g'inlaridagi vazifalarni quyidagi 1-rasmda shakllantirdik.



1-rasm. Davlat va mahalliy boshqaruv organlari buyurtmalar tizimi orqali outsorsing qilish mumkin bo'lgan vazifalar²⁶

Davlat xizmatlarini ko'rsatish sifatini kompleks baholashning samarali tahlili fikrimizcha quyidagi asosiy usullar yordamida aniqlash imkonini beradi:

²³ Игнатьюк Н.А. Государственно-частное партнерство в России // Право и экономика, 2006. -№ 8.-С. 3-7.

²⁴ Parasuraman, A. A Conceptual Model of Service Quality and Its Implications for Future Research / A. Parasuraman, Valerie A. Zeithaml, Leonard L. Berry // Journal of Marketing. – 1985. – Vol. 49 (4). – P. 41–50.

²⁵ Cronin, J and Taylor, S A (1994). "SERVPERF versus SERV-QUAL: Reconciling Performance-based and Perceptions–Minus–Expectations Measurement of Service Quality,"Journal of Marketing, 58(January), 125-31.

²⁶ Manba muallif ishlanmasi.

a) haqiqatda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini mavjud standartlariga muvofiqligini monitoring qilish;

b) ko'rsatilayotgan xizmat sifatini aniqlash bo'yicha iste'molchilar fikrini o'rganishning sotsiologik tadqiqotlari;

d) ko'rsatilgan davlat xizmatlarining sifat standartlariga muvofiqligini tekshirish bo'yicha nazorat choralarini amalga oshirish.

Amaldagi sifatni baholash usullarini tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, aksariyat holatlarda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini baholashda so'rovnomalar monitoringi, sotsiologik so'rovlar qo'llaniladi, shularni inobatga olgan holda davlat xizmatlarini ko'rsatish sifatini baholash uchun foydalaniladigan barcha parametrlar to'plamini shartli ravishda ikkita asosiy guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) elektron ravishda olinishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar to'plamini aniqlash. Ushbu guruh uchun quyidagi parametrlarni ajratish mumkin: xizmatni qabul qilish vaqti; rejalashtirilgan vaqti; xodimlarning xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish imkoniyati; davlat xizmatlarini ko'rsatishda tovarlar va xizmatlarni iste'mol qilish me'yorlariga rioya qilish va boshqalar;


b) ekspert baholash. Bunday holda, xizmat ko'rsatish sifatini baholash uchun ishlatiladigan asosiy parametrlar to'plami: iste'molchi uchun xizmatdan foydalanish imkoniyati; xodimlar malakasi; xizmatdan qoniqish darajasi; xizmat ko'rsatish shartlari: qulaylik, xushmuomalalik va boshqalar hamda davlat xizmatlarini ko'rsatishdagi qat'iy tartib-qoidalarga rioya qilinishi.

Autsorsingga topshirilgan davlat xizmati sifatini o'lchash tartibini quyidagi asosiy bosqichlar ketma-ketligi bilan tavsiflash mumkin: 1) baholash holatini aniqlash; 2) ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish; 3) xususiyatlarni o'lchash uchun me'yorlarni shakllantirish; 4) qiyosiy taqqoslash mezonini tanlash va asoslash; 5) yaxlit ko'rsatkichlar tizimini yig'ish. Baholash holatini aniqlash bosqichida baholash subyektlarini belgilash talab qilinadi, shuningdek, cheklovchi omillar aniqlanadi. Baholash holatiga nisbatan aniqlik ikki yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin.

Birinchi yondoshuv - byudjet xizmatining muhim belgilari va xususiyatlarini aniqlash hamda ularni tasniflash. Ikkinchi yondashuv davlat xizmatini jarayonlar majmui sifatida taqdim etishga asoslanadi va ushbu xizmatdagi individual jarayonlarni hamda ularning muhim xususiyatlarini taqsimlashni o'z ichiga oladi.

Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, bir vaqtning o'zida davlat xizmati sifatiga qo'yiladigan talablar, ularning normativ va haqiqiy qiymati, sifat talablaridan chetga chiqish ko'rsatkichlari taqqoslanadi. Autsorsingga topshirilgan davlat xizmatlarini ko'rsatish sifatining yakuniy bahosini olish uchun me'yorlashtirish mexanizmlari, ustuvor baholash tartib-qoidalari, yagona ko'rsatkichlarni yig'ish va ulardan foydalanilgan holda barcha mezonlar uchun baholash qiymatlarini umumlashtirish kerak, bu ma'lumotlarni umumlashtirish va integral ko'rsatkichlarini hisoblash imkonini beradi.

Davlat xizmatlarini ko'rsatishni tashkil etish samaradorligini baholash va unda maqbul usullardan foydalanish keltirib o'tilgan, omillarni to'g'ri aniqlash hamda ularni haqqoniy baholash imkoniyatini yaratib beradi. Ammo ushbu jarayondagi eng muhim muammolardan biri sifatida ishonchli va zaruriy ma'lumotga ega bo'lish hisoblanadi. Shu sababli davlat xizmatlarini tashkil etish samaradorligini baholashda muhim bo'lgan miqdoriy ko'rsatkichlar shakllantirish alohida muhim ahamiyatga ega.



2-rasm. Davlat xizmatlarini autorsingga topshirish monitoringi va sifatini nazorat qilish algoritmi²⁷

Fikrimizcha, ma'muriy va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish davlat xizmatlari samaradorligini oshirish, axborot texnologiyalarini joriy etish bo'yicha qator chora-tadbirlar samarali amalga oshirilib kelinayotgan bo'lsada, bu sohada hali foydalanilmayotgan imkoniyatlar mavjud. Davlat xizmatlari sohasida autorsingdan foydalanish asosida byudjet xarajatlarini optimallashtirish, xizmat sifatini yaxshilash ushbu yo'nalishdagi imkoniyatlardan biri hisoblanadi. Outsorsing xizmatlaridan foydalanishdan maqsad byudjet xarajatlarini kamaytirish hamda sohaga xususiylarining kapit-

²⁷ Manba muallif ishlanmasi.

lini jalb qilgan holda ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish va outsorsing xizmatlari asosida davlat xaridlarini tashkil etish aniq mexanizmlariga asoslanishi shart. Biz davlat xizmatlarini outsorsingga o'tkazish algoritmini taklif qilamiz (2-rasmga qarang).

Uchinchi yakuniy bosqichda davlat va mahalliy boshqaruv organlari buyurtmalar tizimida outsorsing xizmatlari sifatini monitoring qilib borish, nazorat qilish tizimini ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etiladi.

Shuningdek, outsorsing xizmatlari bozori va mavjud sharoit qarab chiqiladi hamda outsorsingga o'tishning byudjet mablag'larini sarflash samaradorligiga ta'sirini miqdori usullar yordamida baholanadi.

Xizmatlarni outsorsingga o'tkazish natijasi ularning sifati va aholi ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirishga xizmat qilish lozim. Outsorsing xizmatlari bozorini tadqiq qilish mazkur yo'nalishda tajribaga ega mas'ul tashkilotlar aniqlash talab qilinadi. Byudjet muassasalarida outsorsing xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar bozori yo'qligi muammosini bartaraf etish choralarini ko'rishni nazarda tutadi.

Bunday choralar sifatida pudratchilar uchun talablarni shakllantirish; davlat va mahalliy boshqaruv organlari funksiyalarni outsorsingga o'tkazish bo'yicha sinov loyihalarini shakllantirish va o'tkazish; outsorsing doirasida xizmatlar ko'rsatish standartlarini ishlab chiqish va boshqalarni keltirish mumkin.

Outsorsing bilan shug'ullanuvchi korxonalar mavqeyini mustahkamlash, ushbu bozorda ochiq raqobatni shakllantirish, mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlar doirasini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim. Shuning uchun salohiyatli outsorsierlarni aniqlash bosqichida har bir korxonaga haqida iloji boricha batafsil va ishonchli dastlabki ma'lumotlarni to'liq shakllantirish kerak bo'ladi. Bundan tashqari, outsorsingni joriy etishning byudjet xarajatlarini kamaytirish va samaradorlikni oshirishga ta'sirini baholash asosida outsorsingga o'tkazishda muqobil variantlardan eng samaralisini tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi.


Davlat xizmatlarini outsorserga topshirishni maqsadga muvofiqligini baholashda quyidagi asosiy shartlarga amal qilish kerak:

- iqtisodiy samaradorlik ta'minlanishi lozim;
- xizmat sifati va outsorserning shartnoma shartlariga amal qilgani holda xizmatni belgilangan talablar asosida taqdim qilish imkoniyati.


Yuqoridagilarni hisobga olib uchinchi tomon tashkilotlarini jalb etish to'g'risida asosiy qaror qabul qilishda qator ko'rsatkichlardan foydalanish taklif etiladi (3-rasmga qarang).

Keltirib o'tilgan omillar ustuvorligi aniqlashda reyting tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda eng muhim omillarni ajratib ko'rsatish uchun outsorsing tashkiloti bilan shartnoma tuzish samaradorligi va afzalligini taqqoslash imkonini beradigan ko'p bosqichli ekspert baholash usulidan foydalanish taklif etiladi. Shuningdek, outsorsingga o'tkaziladigan xizmatlar sifatini ekspert baholash jarayonlari bosqichlari 4-rasmda keltirildi.

Biz outsorsing xizmatlari turlari xususiyatlari to'g'risidagi joylardan elektron tarzda olinadigan ma'lumotlarni yuqori malakali ekspertlar fikr takliflarini baholash usuli yordamida to'ldirishni taklif qilamiz. Ekspertlar tomonidan berilgan baholarni umumlashtirgan holda integral ko'rsatkichlarni shakllantirish turli mezonlar asosida outsorsing xizmatlarining o'ziga xos jihatlariga baho berish imkonini yaratib beradi.



3-rasm. Davlat xizmatini autsorserga topshirish to'g'risida qaror qabul qilishda foydalanish taklif qilinadigan ko'rsatkichlar²⁸.



4-rasm. Autсорsingga o'tkazilgan xizmat sifatini ekspert usuli asosida baholash bosqichlari²⁹


Demak, autсорsing xizmatlarini davlat xaridlari tizimida foydalanish byudjet muassasasining mavjud holati, uning faoliyatini asosiy yo'nalishlarining xususiyatlarini hisobga olishni talab qilib, taklif etilayotgan xizmat sifatini baholash usullari autсорsingini o'tkazish maqsadga muvofiqligini aniqlashga, autсорsingga o'tishning byudjet muassasasi faoliyatiga ta'sirini baholash jarayonida barcha ijobiy va salbiy omillarni miqdoriy va sifat jihatidan tahlil etishga yordam beradi.

²⁸ Manba muallif ishlanmasi

²⁹ Manba muallif ishlanmasi

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Xorazm viloyatida outsorsing xizmatlari asosida byudjet xaridlari ijrosini sifatli ta’minlashning istiqbolli yo‘nalishlari” deb nomlanadi va unda outsorsing xizmatlari asosida davlat xaridlarini sifatli ta’minlashda outsorserni tanlashning iqtisodiy-sifat modeli, davlat xaridlarini sifatli tashkil qilishda byudjet parametrlari prognoz ko‘rsatkichlari va Xorazm viloyatida mahalliy byudjet xaridlarini sifatli ta’minlashda outsorsing xizmatlarini joriy qilishning ekonometrik modellarini shakllantirish va ular asosida prognoz ko‘rsatkichlarini asoslash amalga oshirilgan.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, amalda salohiyatli xizmat ko‘rsatuvchilar soni va baholashda qo‘llanish mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlari juda ko‘p, lekin davlat xizmatlarini outsorsingga o‘tkazishda outsorserni to‘g‘ri tanlash bo‘yicha taklif qilinayotgan usuli byudjet masalalari faoliyatini hisobga olgan holda xarajatlarni minimallashtirish imkonini yaratib beradi. Davlat xizmatlarini outsorsingga o‘tkazish uchun salohiyatli outsorserni tanlashning iqtisodiy – sifat modeli algoritmi quyidagicha bo‘ldi (5-rasm).



5-rasm. Davlat xizmatlarini autsoerserga topshirishda korxonani tanlashning iqtisodiy - sifat modeli algoritmi³⁰

Davlat xizmatlarini outsorsingini tashkil qilishda mavjud korxonalar ichidan salohiyatlilarini aniqlash va ularning zaruriy hajm va sifatdagilarni ko‘rsata olish qobiliyatini baholash bo‘yicha keltirib o‘tilgan algoritmdan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bizning tahlillarimizga ko‘ra, ikki bosqichdan iborat autsoerserni tanlashning iqtisodiy-sifat modeli algoritmi byudjet taqchilligi (defitsiti)ning jami daromadlarga

³⁰ Manba muallif ishlanmasi.

nisbatan yuqori ulushi saqlanib qolishi va uning barqarorligini ta'minlashga va pirovard natijada xarajatlarni qisqarishiga xizmat qiladi.

Biz ushbu ilmiy-uslubiy tadqiqotlarga asoslangan holda, Xorazm viloyati maktabgacha ta'lim tizimida outsorsing xizmatlarining rivojlanishi holati tahlil qilish uchun jami 10 ta tuman va shahardan 19 ta lotdagi 85 davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti outsorsing xizmatlari so'rovnomani tahlilini amalga oshirdik. 2022-yil 1-yanvar holatiga viloyatdagi **361 ta** davlat MTT dan **85 tasi (24%)** outsorsing usulida ovqatlantirish tizimiga o'tkazilgan. Shartnoma imzolangan **13 ta** tadbirkorlar tomonidan joriy yilning 1-may holatiga **2 mlrd. 396 mln. so'mlik** investitsiya mablag'lari kiritildi. Shuningdek, 12 oylik davr mobaynida olingan so'rovnamalarda **10901 nafar** ota-onalar qatnashib, "Autsorsing" usulidagi ovqatlantirish tizimiga **86.5 foiz** respondentlar **ijobiy** fikr bildirishgan.

Tahlillar natijalariga ko'ra, 85 ta outsorsing xizmatlariga o'tkazilgan MTTlarining 19 ta lotini 14 ta tadbirkor-outsorsierlar yutib olgan. Buning ayrim sabablari va sifat nuqsonlari sifatida quyidagilarni keltiramiz:

1. Kam sondagi lotlarni ta'minlashning iqtisodiy va moliyaviy jihatdan samarasi pastligi.

2. Taklif qilingan me'yorlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan outsorsing xizmatlari ko'rsatuvchi firmalarning kamligi.

3. O'z ishlab chiqarishiga ega, xizmat tannarxini maqbul bahoda taklif qilib, foyda me'yoridan past bo'lsa-da, qoniquvchi tadbirkorlar jamoasining endi shakllanayotganligi.

Tahlillar, ushbu DMTTlarda outsorsing xizmatlari sifati, bolajonlarga berilayotgan ovqat koloriyasi belgilangan me'yorlardan pastligini ko'rsatdi. Lekin so'rovnomada qatnashgan 9000 dan ortiq ota-onalarning qariyb 91 foizi outsorsing xizmatlaridan qoniqish hosil qilayotganligini bildirishgan. Shuningdek, barcha autosorsierlarda sanitariya holati nisbatan qoniqarli ekanligi, sifat sertifikatlari mavjudligi, xodimlar tibbiy ko'rikdan to'liq o'tgan, oshpazlarning barchasi O'zbekiston Oshpazlar uyushmasi Xorazm viloyati hududiy bo'limi tomonidan malaka oshirganlik sertifikati mavjudligi aniqlandi.

Tahlillarimizga ko'ra, 2022-yilda outsorsing xizmatlari joriy qilingan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 85 tasiga umumiy qiymati 2,739 mlrd. so'mlik investitsiya mablag'lari kiritilishi ko'zda tutilgan bo'lsada, amalda jami 4 ta tumanlarda, xususan, Bog'ot tumanida (-79,3 mln. so'm yoki 64,0 foiz), Qo'shko'pir tumanida (122,0 mln. so'm yoki 36,1 foiz), Urganch tumani (-26,5 mln. so'm yoki 81,9 foiz) va Yangiariq tumanida (158,0 mln. so'm yoki 5 ta DMTTda 0,0 foiz umuman bajarilmagan) umumiy qiymati 343,7 mln. so'mlik investitsiya kam kiritilib, reja atigi 87,0 foiz bo'lib bajarilgan.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni tartibga solishda va ijtimoiy himoyani ta'minlashda byudjet xizmatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq keyingi yillarda bu baroda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ijobiy samara berayotganligiga qaramasdan, byudjet xarajatlarini daromadlarga nisbatan yuqori sur'atlardagi o'sishi kuzatilmoqda.

Xorazm viloyati maktabgacha ta'lim tizimida autsorsing xizmatlari ko'rsatuvchi tadbirkorlar investitsiya faolligini sotsiologik so'rovlar natijalari³¹

T/r.	Hudud nomi	MTT lar soni	2022-yilga investitsiya rejasi (mln. so'mda)	Kiritilgan investitsiya mablag'i (mln. so'mda)	Foizda %	O'tkazilgan so'rovnomalarda qatnashgan ota-onalar soni	Shundan ijobiy fikr bildirganlar soni	Foizi %
Xorazm viloyati		85	2 739,8	2 396,5	87,4	10 901	9 429	86,5
1	Bog'ot	8	204,0	131,0	64,2	1 013	950	93,8
2	Gurlan	5	168,0	187,3	111,5	578	14	2,4
3	Qo'shko'pir	4	191,0	69,0	36,1	433	290	67,0
4	Shovot	6	191,0	191,0	100,0	819	802	97,9
5	Urganch sh.	14	664,7	681,6	102,5	1 931	1 855	96,1
6	Urganch t.	4	146,5	120,0	81,9	520	438	84,2
7	Hazorasp	3	83,0	83,0	100,0	344	344	100,0
8	Xonqa	23	397,4	397,4	100,0	3 173	3 155	99,4
9	Yangiariq	5	158,0	0,0	0,0	620	310	50,0
10	Yangibozor	13	536,2	536,2	100,0	1 470	1 271	86,5

Tahlillarimiz natijalariga ko'ra, 2022-yilda byudjet taqchilligi jami byudjet daromadlarining 17,1 foizini tashkil qilgan bo'lsa, YIMga nisbatan ulushi 3,9 foizga teng bo'lganligi kuzatiladi.

Rivojlangan davlatlar tajribasiga ko'ra, byudjet taqchilligini eng ko'p bilan 3 foizdan oshmasligi tavsiya qilinadi³². Byudjet taqchilligining yuqori bo'lishi davlat qarzining oshishi hamda foiz to'lovlarining o'sishini keltirib chiqaradi, natijada qarz yukining oshishi mamlakatning fiskal muvozanatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi³³. Demak, O'zbekistonda byudjet taqchilligini kamaytirish masalasiga jiddiy e'tibordagi ijtimoiy-iqtisodiy masala hisoblanadi. Bu borada qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda, xususan, tibbiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi tizimidagi tibbiy-ijtimoiy muassasalarda qo'shimcha va yordamchi funksiyalarni autsorsing shartlarida tashkil etish, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tizimidagi maktablarda sog'lom ovqatlanirishni autsorsing usulida tashkil etish³⁴, davlat bojxona qo'mitasining bojxona instituti shaxsiy tarkibining ovqatlanish tizimini autsorsing shartlarida tashkil etish³⁵ kabilar shular jumlasidandir.

³¹ Sotsiologik anketa-so'rovnoma natijalari asosida muallif hisob-kitoblari

³² Mehmet Mercan (2014). Budget Deficits Sustainable? An Empirical Analysis For OECD Countries, Procedia - Social and Behavioral Sciences, 131, 258 – 263.

³³ Das, P. 2016. Debt Dynamics, Fiscal Deficit, and Stability in Government Borrowing in India: A Dynamic Panel Analysis. ADBI Working Paper 557. Tokyo: Asian Development Bank Institute. Available:

<http://www.adb.org/publications/debt-dynamics-fiscal-deficit-and-stabilitygovernment-borrowing-india-dynamic-panel/>

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tizimidagi maktablarda sog'lom ovqatlanirishni autsorsing usulida tashkil etish to'g'risida"gi 218-sonli qarori.

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo'mitasining bojxona instituti shaxsiy tarkibining ovqatlanish tizimini autsorsing shartlarida tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi 52-sonli qarori.

Tahlillarimizga ko'ra, outsorsing usulidan foydalanishga asosiy e'tibor 2019-yildan boshlab kuchayganligini kuzatish mumkin, shuningdek, byudjet taqchilligi esa 2020-yilda vujudga kelgan, ya'ni xarajatlar jami daromadlarga nisbatan 8,4 foizga yuqori bo'lgan. Shu bilan birga, outsorsing usulidan foydalanish va uning byudjet tarkibiy qismlariga ta'sirini tadqiqot obyekti bo'lgan Xorazm viloyatining 2018-2022-yilgi statistik ma'lumotlari asosida qarab chiqildi.

Ushbu ma'lumotlar nominal shaklda keltirilganligi sababli iste'mol narxlar indeksidan foydalanilgan holda real qiymatlarga aylantirildi. Buning uchun 2018-yil bazis yil sifatida qabul qilindi. Xorazm viloyatida joylashgan byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlari tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirishda outsorsingdan foydalanish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda, natijada 2018-yilda outsorsinga topshirilgan xizmatlar qiymati 536,5 million so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib, 23909,0 million so'mga yetgani holda mazkur davrda 44,6 martaga oshganligini kuzatishimiz mumkin. Viloyatda outsorsingdan foydalanishning turli yo'nalishlardagi davlat xaridlariga ta'siri korrelyatsion tahlil natijalariga tayanilgan holda turli yo'nalish va ko'rinishdagi jami 20 turdagi davlat xaridlari qarab chiqildi.

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, elektron auksion asosida amalga oshirilgan xaridlar bilan outsorsing xizmatlari orasida teskari bog'liqlik kuzatildi, ya'ni outsorsing xizmatlari hajmi oshishi bilan ushbu yo'nalishdagi xaridlar miqdori kamayayotganligi aniqlandi. Qolgan barcha tur va yo'nalishdagi davlat xaridlari hajmi outsorsing xizmatlari bilan to'g'ri bog'liq.

Ammo shuni alohida ta'kidlash kerakki, elektron auksion byudjet mablag'larni iqtisod qilishning muhim istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rinadi. Ya'ni, 2022-yilda elektron auksion bo'yicha savdolar hajmining e'lon qiymati 58430,21 mln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, shartnoma summasi 36487,27 mln. so'mni tashkil qilgani holda iqtisod qilingan mablag' summasi 21942,94 so'mga teng bo'lgan va e'lon summasining 37,6 foizi tejalgan.

Jami davlat xaridlari bilan outsorsing xizmatlari orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,51 ni tashkil qilmoqda. Koeffitsiyentning musbat qiymatga ega bo'lishi, lekin yetarli darajada yuqori emasligi outsorsing xizmatlaridan foydalanishni talab darajasida yo'lga qo'yilgan deb xulosa chiqarishga to'liq imkon bermaydi. Eng yuqori korrelyatsiya koeffitsiyenti esa tovar moddiy zaxiralariga xarajatlariga to'g'ri kelgani holda outsorsing xizmatlarini oshishi ushbu xarajat turini ham oshishini ko'rsatmoqda.

Shu o'rinda viloyatda jami davlat xaridlari hajmiga qaysi tur va yo'nalishdagi xarajatlarining ta'siri yuqori ekanligini qarab chiqildi. Korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, qurilish xarajatlari (0,97), xalq ta'limida amalga oshirilgan davlat xaridlari (0,96), maktabgacha ta'limda amalga oshirilgan davlat xaridlari (0,91), to'g'ridan to'g'ri shartnoma asosida amalga oshirilgan xaridlar (0,96) bilan jami davlat xaridlari orasidagi yuqori bog'liqlik mavjudligi aniqlandi.

Xorazm viloyati g'aznachilik xizmati boshqarmasi va tuman (shahar) g'aznachilik bo'linmalari tomonidan byudjet tashkilotlarining elektron do'kon, auksion va milliy do'kon orqali xarid qilingan tovar (ish xizmat)lardan iqtisod qilingan mablag'larga e'lon summasining ta'siri qarab chiqildi. Regression tahlillarimizga

ko'ra, quyidagi modelga ega bo'lindi:

$$\ln(IJ) = -1.48 + 0.97 * \ln(EJ) \quad (1)$$

Bu yerda: IJ – Xorazm viloyati bo'yicha g'aznachilik xizmati boshqarmasi va bo'linmalari tomonidan byudjet tashkilotlarining elektron do'kon, auksion va milliy do'kon orqali xarid qilingan tovar (ish xizmat)lardan iqtisod qilingan mablag'lar summasi mln. so'm; EJ - Xorazm viloyati bo'yicha g'aznachilik xizmati boshqarmasi va bo'linmalari tomonidan byudjet tashkilotlarining elektron do'kon, auksion va milliy do'kon orqali xarid qilingan tovar (ish xizmat)larni e'lon summasi mln. so'm.

Taklif qilinayotgan model va uning koeffitsiyentlari adekvatligini asoslash uchun 3-jadvaldagi mezon natijalari qarab chiqildi. Jami iqtisod qilingan mablag'ga elektron auksion va elektron do'kon bo'yicha e'lon summasidagi o'zgarishlarning ta'siri alohida ham qarab chiqildi.

$$\ln(IJ) = -0,93 + 0,63 * \ln(EX20) + 0,36 * \ln(EX19) \quad (2)$$

bu yerda: EX19 – elektron auksion bo'yicha e'lon summasi mln. so'm; X20 - elektron magazin bo'yicha e'lon summasi mln. so'm.

3-jadval

Xorazm viloyati g'aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan byudjet tashkilotlarining elektron va milliy do'kon, auksion orqali xarid qilingan tovar (xizmat)lardan iqtisod qilingan mablag'larga e'lon summasining ta'siri³⁶

Model 4: OLS, using observations 1-28,
Dependent variable: l_IJ

	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>t-ratio</i>	<i>p-value</i>	
const	-1.47818	0.446127	-3.313	0.0027	***
l_EJ	0.974497	0.0507705	19.19	<0.0001	***
Mean dependent var	7.048207		S.D. dependent var	0.833715	
Sum squared resid	1.237139		S.E. of regression	0.218134	
R-squared	0.934080		Adjusted R-squared	0.931544	
F(1, 26)	368.4151		P-value(F)	7.10e-17	
Log-likelihood	3.941367		Akaike criterion	-3.882734	
Schwarz criterion	-1.218325		Hannan-Quinn	-3.068197	

Ushbu modelning adekvatligini asoslash bo'yicha keltirilgan mezonlarning barchasi talab darajasi va undan xulosalar chiqarishda foydalanish mumkinligini asoslamoqda (4-jadvalga qarang).

Model natijalaridan ma'lum bo'lishicha, byudjet xarajatlarini iqtisod qilishda elektron do'kon bo'yicha xaridlarni amalga oshirish elektron auksionga nisbatan samarali usul sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ya'ni, iqtisod qilingan mablag'ning elektron do'kon e'lon summasi bo'yicha elastiklik koeffitsiyenti 0,63 ni tashkil qilsa, elektron auksion e'lon summasi bo'yicha 0,36 ga teng bo'lmoqda. Keyingi besh yilda elektron do'kon e'lon summasini 4,7 barobarga oshganligi model asosida olingan natijalar va xulosalarning to'g'riligini asoslaydi.

³⁶ Manba muallif ishlanmasi.

Elektron auksion va elektron do‘kon bo‘yicha e‘lon summasining jami iqtisod qilingan mablag‘larga ta‘sirini baholash natijalari³⁷

Model 8: OLS, using observations 1-28, Dependent variable: l_IJ

	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>t-ratio</i>	<i>p-value</i>	
const	-0.925810	0.408622	-2.266	0.0324	**
l_EX20	0.631804	0.0665014	9.501	<0.0001	***
l_EX19	0.362355	0.0566288	6.399	<0.0001	***
Mean dependent var	7.048207		S.D. dependent var	0.833715	
Sum squared resid	1.084297		S.E. of regression	0.208259	
R-squared	0.942224		Adjusted R-squared	0.937602	
F(2, 25)	203.8517		P-value(F)	3.33e-16	
Log-likelihood	5.787536		Akaike criterion	-5.575072	
Schwarz criterion	-1.578458		Hannan-Quinn	-4.353267	

Ammo shuni alohida ta’kidlash kerakki elektron auksion bo‘yicha xaridlarda byudjet mablag‘larini iqtisod qilish samaradorligi yuqori qiymatga ega. Chunki oxirgi yilda ushbu yo‘nalishda iqtisod qilingan summaning jami e‘lon summaga nisbatan ulushi 38 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, elektron magazin bo‘yicha mazkur ko‘rsatkich 12 foizni tashkil qilganligi aniqlandi. Buni hisobga olgan holda har bir yo‘nalishda e‘lon summasidagi o‘zgarishning iqtisod qilingan mablag‘ga ta‘siri regression tahlil asosida miqdoriy baholandi.

Elektron auksion bo‘yicha e‘lon summasining jami iqtisod qilingan mablag‘larga ta‘sirini baholash natijalariga ko‘ra quyidagi regressiya tenglamasi aniqlandi:

$$\ln (IX19) = -1.83 + +1,07 * \ln (EX19)$$

$$t = (-3.22) \quad (13,98) \quad R^2 = 0,88 \quad (3)$$

Keltirib o‘tilgan modelning adekvatligini asoslash uchun Student mezon natijalari keltirib o‘tilgan bo‘lib, u aniqlangan ikkala koeffitsiyentning ham adekvatligini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, modelning umumiy mosligini asoslash uchun determinatsiya koeffitsiyenti ham keltirib o‘tilgan. Uning natijalariga erksiz o‘zgaruvchidagi o‘zgarishlarning 88 foizi tanlangan erkli o‘zgaruvchilar hisobiga to‘g‘ri kelmoqda. Model asosida baholangan qiymatlar bilan haqiqiy qiymatlar orasidagi farqni ifodalovchi MAPE ko‘rsatkichi esa 5,3 ga teng bo‘lgani holda modelning ishonchliligini asoslaydi.

Ishlab chiqilgan model natijalariga ko‘ra, elektron auksion bo‘yicha e‘lon summasini bir foizga oshishi iqtisod qilingan mablag‘ hajmini 1,07 foizga oshishiga imkon yaratadi.

Xorazm viloyatida mahalliy byudjet xaridlarini sifatli ta‘minlashda outsorsing xizmatlarini joriy qilishning ekonometrik modellarini ishlab chiqish va ular natijalariga tayangan holda shuni ta’kidlash mumkinki, viloyatda outsorsing xizmatlarini keyingi besh yilda yuqori sur‘atlardagi o‘sish ta‘minlangan.

Mavjud ma‘lumotlar va ularning tahlili natijalariga ko‘ra, elektron auksion va elektron do‘kon bo‘yicha xaridlarni amalga oshirish, byudjet mablag‘larini iqtisod qilishdagi samarali yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Regression tahlil

³⁷ Manba: muallif ishlanmasi.

natijalariga ko'ra, elektron auksion va elektron do'kon bo'yicha e'lon summasini 1 foizga oshishi jami iqtisod qilingan mablag'ni mos ravishda 0,63 va 0,36 foizga oshirishni ta'minlaydi.

Umumiy xulosa qilganda, mahalliy byudjet mablag'larini iqtisod qilishda outsorsing xizmatlaridan foydalanish katta samara beradi va bu jarayonlarda elektron auksion hamda elektron do'kondan foydalanish istiqbolli yo'nalish sifatida taklif qilinadi.

Xulosa

Autsorsing xizmatlari asosida davlat xaridlarini sifatli ta'minlash yo'llarini aniqlash bo'yicha o'tkazgan tadqiqotlarimiz quyidagi xulosa va takliflarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Outsorsing xizmatlari byudjet mablag'larni iqtisod qilish mavjud resurslardan samarali foydalanishni tashkil qilishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda IT xizmat, infratuzilma va xosting, tan soqchilik, transport logistika, Call-markazlar, buxgalteriya hisobi va boshqa xizmatlarni tashkil qilishda outsorsingdan samarali foydalanilmoqda. Shuningdek, amaliyotda outsorsing xizmatlarinig autstaffing, autstakking, autsplyement, eksternalizatsiya, insorsing, reinsorsing, kooperatsiya, eksternalizatsiya kabi keng ommalashgan turlari mavjud bo'lib, O'zbekiston sharoitida asosan kooperatsiya va outsorsingning sof holdagi variantlari qo'llanilmoqda.

2. O'zbekistonda outsorsing asosida davlat xaridlarini rivojlantirish maqsadida bir qator rivojlangan mamlakatlar tajribalari tadqiq qilinib, mamlakatimiz uchun eng maqbul innovatsion va istiqbolli yo'nalishlar sifatida "**Sircular PP**" - "*barqaror hayot uchun aylanma sikl xaridlari*", IT outsorsingi, kadrlar outsorsingi, moliyaviy, huquqiy outsorsing turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

3. Keyingi yillarda mamlakatda byudjet daromadlari va xarajatlari tarkibiy o'zgarishlari, turli iqtisodiy tebranishlar sababli davlat daromad va xarajatlar mutanosibligini buzilishiga sabab bo'lmoqda. 2012-2022-yillarda o'rtacha byudjet daromadlarining real qiymati 3,6 martaga, xarajatlar esa 4,3 martaga oshgan. 2020-yildan boshlab byudjet taqchilligi byudjet daromadlarining 8,4 foizini tashkil qilgani holda keyingi 2 yilda yuqori sur'atda o'sib, 2022-yilda 17,1 foizni tashkil qilgan.

4. Outsorsing asosida davlat xaridlari sifatini oshirish, byudjet xarajatlarni iqtisod qilishda ko'zlangan maqsadga erishish uchun, avvalo, xizmat sifatini baholashning nazariy uslubiy asoslarini shakllantirish, ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish talab qilinadi. Xizmat sifatini o'lchash va baholashning mavjud miqdoriy usullarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular asosan xizmatlar ko'rsatish tizimlari va muddatining tashqi bahosini olishga (ya'ni iste'molchi nuqtayi nazaridan baholash) qaratilishi lozim. Outsorsing bilan shug'ullanuvchi korxonaga topshirilgan byudjet xizmati sifatini baholashning taklif qilingan shkalasi xizmat sifatini miqdoriy baholash va iste'molchilar fikrini o'rganish imkoniyatini yaratib beradi.

5. Outsorsing xizmatlari samaradorligini pasaytiruvchi omillar hamda davlat xizmatlarini tashkil qilish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tasnifini shakllantirish asosida uch bosqichdan tashkil topgan, davlat xizmatlarini outsorsingga topshirish monitoringgi va sifati nazoratini algoritmidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Birinchi bosqichda outsorsingga o'tkaziladigan davlat xizmatlari aniqlansa, ikkinchi bosqichda miqdoriy va sifat talablari mosligini aniqlash mezonlari ish-

lab chiqiladi va baholanadi. Uchinchi bosqichda outsorsing xizmatlari sifatini monitoring qilib borish va nazorat qilish tizimini ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etiladi.

6. Byudjet xizmatlarini outsorsingini tashkil qilishda outsorserni tanlashning iqtisodiy-sifat modelini ishlab chiqishda bozor qonunlariga asoslanish, jumladan, chekli xarajatlar asosida iqtisodiy samaradorlikni miqdoriy baholash, raqobatlashgan bozor sharoitida zaruriy talablar doirasida eng maqbul to'lov evaziga daromad olish imkoniyatiga ega bo'lgan outsorserni tanlash imkonini bergani holda xizmat sifatini ta'minlash, miqdoriy baholashda ekspert usulidan foydalanish tavsiya qilinadi.

7. Byudjet parametrlarini prognoz natijalariga dastlabki yillarda defitsitini 14,7 foizga qadar kamayishi, ammo keyingi yillarda yana o'sishini, jumladan, 2026-yilga borib 2022-yildagi darajasiga yetishi va 2027-yilda 17,7 foizni tashkil qilgani holda 0,6 foizga oshishi kuzatiladi. Umumiy hisobda ushbu prognoz natijalari byudjet defitsitining nisbatan pasayishi va mavjud holatini saqlanib qolish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Bu o'z navbatida outsorsing xizmatlarini rivojlantirish asosida byudjet yuklamasini bosqichma-bosqich kamaytirish lozimligini asoslaydi.

8. Korrelyatsion tahlil elektron auksion asosida amalga oshirilgan xaridlar bilan outsorsing xizmatlari orasida teskari bog'liqlikni ko'rsatmoqda. Buning asosiy sababi esa elektron auksion asosida amalga oshirilgan savdolar hajmi 1,46 martaga kamayishi hisoblanadi. Ammo ta'kidlash kerakki, elektron auksion byudjet mablag'larini iqtisod qilishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. 2022-yilda elektron auksion bo'yicha savdolar hajmining e'lon qiymati 58430,21 mln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, shartnoma summasi 36487,27 mln. so'mni tashkil qilib, iqtisod qilingan mablag' summasi 21942,94 so'mga teng bo'lgan va e'lon summasining 37,6 foizi tejalgan.

9. Outsorsing xizmatlari hajmi korrelyatsion tahlilga ko'ra, deyarli barcha tur va yo'nalishdagi byudjet xaridlari bilan musbat bog'liqlikka ega. Koeffitsiyentning musbat qiymatga ega bo'lishi, lekin yetarli darajada yuqori emasligi outsorsing xizmatlaridan foydalanish talab darajasida yo'lga qo'yilgan deb xulosa chiqarishga to'liq imkon bermaydi. Jumladan, qurilish xarajatlari (0,97), xalq ta'limi (0,96) hamda maktabgacha ta'limda amalga oshirilgan davlat xaridlari (0,91), to'g'ridan to'g'ri shartnoma asosida amalga oshirilgan xaridlar (0,96) bilan jami davlat xaridlari bilan outsorsing xizmatlari orasidagi yuqori bog'liqlik mavjud. Lekin outsorsing xizmatlari hajmi bilan qurilish xarajatlari (0,28), MTTda amalga oshirilgan davlat xaridlari (0,37) orasida musbat, ammo zaif bog'liqlik mavjudligi ham aniqlandi.

10. Xorazm viloyatda byudjet mablag'larini iqtisod qilishda elektron auksion va elektron do'kon usullaridan keng foydalanish yo'lga qo'yilgan bo'lsada nisbiy tahlil natijalari byudjet xarajatlarini iqtisod qilishda elektron do'kon bo'yicha xaridlarni amalga oshirish elektron auksionga nisbatan samaraliroq usul ekanligini ko'rsatdi. Ya'ni, iqtisod qilingan mablag'ning elektron do'kon e'lon summasi bo'yicha elastiklik koeffitsiyenti 0,63 ga, elektron auksion e'lon summasi bo'yicha 0,36 ga teng bo'ldi.

O'ylaymizki, yuqoridagi tavsiya va takliflarni amalga oshirish milliy va maxalliy darajada outsorsing xizmatlari asosida davlat xaridlarining sifatli ta'minlanishiga olib keladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.01.2020.I.20.06
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ БЕРДАХА**

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ОТАЖОНОВ КАХРАМОН ОТАЖОНОВИЧ

**ПУТИ КАЧЕСТВЕННОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ
ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК НА ОСНОВЕ РАЗВИТИЯ
АУТСОРСИНГОВЫХ УСЛУГ**

08.00.05 – Экономика отраслей сферы услуг

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

Нукус – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией за номером B2023.2.PhD/Iqt 2908.

Диссертация выполнена Ургенческом государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме) на веб-странице Научного совета (www.karsu.uz) и в информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Салаев Санъатбек Комилович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Убайдуллаев Кайрулла
доктор экономических наук, профессор

Каххаров Отабек Сиддиқович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация:

Бухарский государственный университет

Защита диссертации состоится "12" сентября 2023 г. В 15⁰⁰ часов на заседании разового совета на основе Научного совета PhD.03/30.01.2020.I.20.06 при Каракалпакском государственном университете имени Бердаха. Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдилова, 1. Tel.: (99861) 223-60-78, faks: (99861) 223-60-19, e-mail: karsu_info@edu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета имени Бердаха (зарегистрирована за № 152). Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдилова, 1. Tel.: (99861) 223-59-49, e-mail: karsu_info@edu.uz.


Автореферат диссертации разослан "24" августа 2023 г.

(Протокол реестра "37" 24.08, 2023 г.).



 **Ж.К.Сауханов**
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

 **Р.Б.Утемуратов**
Ученый секретарь Научного совета при присуждении ученых степеней, PhD, доцент

 **Т.Досчанов**
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Обеспечение эффективного функционирования рыночного механизма в экономике стран мира выступает одним из важнейших требований повышения конкурентоспособности на национальном и международном уровнях. Одним из основных путей минимизации государственного вмешательства в экономику является обеспечение государственных закупок на основе развития аутсорсинговых услуг. В условиях глобализации, тенденций информатизации, происходящих в мировой экономике, 50-60% долгосрочных контрактов государственного и негосударственного секторов осуществляется через аутсорсинговые услуги, предусматривающие привлечение внешних ресурсов. Если объем мирового рынка аутсорсинговых услуг в сфере IT в 2021 году составила 414 млрд. долларов США, а в 2022 году достигло почти 1 трлн. долларов США". В частности, рынок аутсорсинговых услуг КНР составляя 362 млрд. долларов США вырос на 14,2% по сравнению с 2021 годом. В настоящее время актуальность приобретает совершенствование относительно удобных и эффективных механизмов организации задач и обязанностей государственного сектора на основе аутсорсинговых услуг.

